

“MAHMUD DORBOZ” QISSASIDA PAHLAVON MAHMUD OBRAZINING YARATILISHI

Buriyeva Shaxnoza Alisher qizi

Termiz, O'zbekiston. +99894 894 01 19 sh.b.alisherovna@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada mustaqillikdan so'ng tasavvuf allomalari obrazining yaratilishi tahlil qilingan. Shu bilan birga, XX asrda Pahlavon Mahmud obrazining o'ziga xos talqini haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: valiy, dahriylik, riyozat, epik, prototip, shakkok.

Mustaqillikdan so'ng milliy qadriyatlarimiz har tomonlama mukammal o'rganish borasida adabiyotshunos olimlarimiz katta yutuqlarni qo'lga kiritdilar. Jumladan, islomiy ilmlar o'rganilib, xalqqa taqdim etilmoqda, Qur'oni Karim, hadisi Shariflar bir necha bor qayta chop etildi, shuningdek, bir qancha ilm egalari tarafidan tasavvuf ta'limotini, ijod vakillarini o'rganish yo'lida, tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Fan doktorlari, professorlar, N. Komilov, O.Usmonov, I.Haqqul, I. Suvonqulov, B.Nazarov, Sultonmurod Olim, Sayfiddin Rafiddinovlar bu yo'nalishda bir qancha ishlarni amalga oshirishdi. Zotan, avliyolarning shaxsiy hayoti, kasb egallash, ilm o'rganish yo'lidagi zahmat va riyozatlari, e'tiqodlarida metindek sobitliklari barcha zamon kishilari uchun namunadir.

Tarixiy shaxslar, din ulamolari haqida nasriy asarlar o'zbek adabiyotida Sobiq ittifoq davrida 60-yillarida yaratildi. Bu davrda, tabiiyki, sinfiylik, partiyaviylik, zamonasozlik aqidalari o'tmishdagi shohlar, din arboblariyu allomalar to'g'risida xolis yozishga ma'lum darajada mone'lik qilardi. Shu tufayli “Amir Temur, Imom Buxoriy, Termiziy, Bobur, hatto Ulug'bekning avvalgi adabiy bosqichda adabiyotimizning bosh qahramoni darajasiga ega bo'lishi mahol edi”. Zero, ularning talqinida ko'pincha davr xususiyatlari hisobga olinmay, islomiy e'tiqodga munosabatlari chetlab o'tilar yoxud zamonaga moslashtirilardi. Bu fikr donishmand shoir, mashhur valiy, benazir kurashchi Pahlavon Mahmud badiiy siymosi aks etgan K.Ikromovning “Mahmud dorboz” qissasiga ham tegishli bo'lib, unda dunyoviy talqin ustuvorlik qiladi. Bu hol din va dindorlar qoralangan, dahriylik esa ulug'langan davrda, 1961-yilda chop etilgan asar uchun tabiiy hol edi. Moskva va Toshkentda rus tilida ko'p nusxada chop etilgan bu asar hur fikr sohibi, mehnatkash omma najotkori bo'lgan tarixiy shaxs faoliyatini epik yo'nalishda qamrovli ko'rsatishga bag'ishlangani bilan she'riy asarlardan ajralib turadi.

Asar syujeti tarixiy fakt va voqelik bilan badiiy to'qima asosiga qurilgan. Darhaqiqat, tarixiy faktlar va real hodisalar yozuvchi uchun katta imkoniyatlar beradi. Lekin hamma gap ularni muayyan maqsadni ifodalash yo'lida to'g'ri saralay bilish, teran baholash va yuksak badiiy shaklda talqin eta olishdadir. Shu jihatdan qissada Pahlavon Mahmud hayoti

va faoliyati bilan bog'liq tarixiy faktlarga (garchi ular unchalik ko'p bo'lmasa ham) tayanilgan. Bu hol shoir va pahlavonning tarixiy manbalarda qayd etilgan.

Hindiston, Eron mamlakatlaridagi sarguzashtlari, ayrim ruboiylarining yaratilishiga aloqador ma'lumotlar talqinlarida ko'proq namoyon bo'ladi. Ammo, ayni chog'da prototipning badiiy talqini adib ijodiy fantaziyasini ham taqozo qiladiki, bu hol badiiylarning muhim talablaridan biridir.

Ikkinchidan, tarixiy manbalar doimo ham tarixiy shaxsning turli davr va vaziyatdagi kayfiyati, faoliyati va turmush tarzining turfa qirralarini to'la qamrab olmagan bo'lishi mumkin. Bu bo'shliqni, tabiiyki, adibning mavzuga ijodiy yondashuvi va badiiy to'qimadan foydalanish mahorati to'ldira oladi. Qissada bu ijodiy jarayon xususiyatlari, avvalo, asar chop etilgan 60-yillarda tarixiy mavzu va shaxslarga yondashuvda sotsialistik g'oyaviylik metodologiyasining ustuvorligi va adibning tasvir ob'ektiga munosabatidagi shaxsiy mayli hamda dunyoqarashi bilan izohlanadi.

Shu jihatdan qissa tarixiy materialni badiiy idrok etish va tarixiy-adabiy xarakter yaratish yo'lida maydonga kelgan epik asar sifatida o'ziga xosdir. Afsuski, bu o'ziga xoslik, shoir va pahlavon obrazini badiiy talqin etishdagi ijobiy va salbiy jihatlar hozirgacha xolis va atroflicha tadqiq qilinmadi. Muhimi shundaki, bu asarga ilmiy jamoatchilikning qiziqishi o'sha davrdan bugungacha davom etayotgan ekan, demak bu tasodifiy bo'lmay, uni yanada chuqurroq tahlil etishni taqozo qiladi. Bu haqda R.Bahodirovna "O'zbek adabiyotida Pahlavon Mahmud obrazi talqinlari" nomli filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyasida atroflicha fikr yuritadi.

Ushbu qissa haqidagi fikrlarni ikki bosqichga ajratish mumkin:

1. O'tgan asrning 70-80-yillari (P.Shermammedov va S.G'afurjonov maqolalari);
2. XX asrning 90 va 2000-yillar boshi (E.Samandar, M.Abdulhakim, Q.Solayev maqolalari).⁹

Bulardan birinchi bosqich tarixiy shaxslar haqidagi asarlarni baholashda yagona mafkura ta'siri ustuvorligi bilan xarakterlansa, ikkinchi bosqichda ilmiy tafakkurda yangicha fikrlashga intilish kuzatiladi. Shu tufayli birinchi bosqichda qissa avvalgi qarashlar asosida faqat maqtaldi, ikkinchi bosqichda esa butunlay rad etildi yoxud xolis baholanmadi. Har ikkala holatda ham asarga bir tomonlama yondashilib, uning yaratilishidagi ijtimoiy-adabiy zamin, adib dunyoqarashidagi evrilishlar, badiiy mazmun mohiyati, yutuq va qusurlar izchil, yaxlit hamda xolislik asosida haqqoniy yoritilmadi.

Adabiyotshunos P.Shermammedov "qissada tarixiy faktlarga suyangen holda davr haqiqatini gavalantirishda"gi o'ziga xoslikni "Xivadagi shoir maqbarasi devorlariga bitilgan ruboiylar, xalq orasida tarqalgan rivoyat va afsonalarga suyanib, ulug' siymolarning jozibali obrazini yaratishda" ko'radi va "Komil Ikromov hamisha haqiqat izlagan rostgo'y qahramonning mashaqqatli hayotini ishonarli tarzda tasvirlaydi", – deb yozadi. Maqola davomida qissaning muayyan motiv va obrazlariga munosabat bildirilib, asar to'la ma'qullanadi va uning hozirgi davrga ham qaratilgani alohida ta'kidlanadi: "Bu

⁹Rahimova.B.O'zbek adabiyotida Pahlavon Mahmud obrazi talqinlari. f. f. n. dissertatsiya.-Toshkent.:2007.95-b

juda qonuniydir. Chunki Pahlavon Mahmud kurashgan tekinox'rlilik va pastkashlik, jaholat va nodonlik, ablahlik va ko'rolmaslik kabi illatlar g'oyat yashovchandir. Bunday illatlarga qarshi olib borilayotgan jang hali to'xtagan emas". Lekin tanqidchi Pahlavon Mahmudning tarixiy haqiqatga zid ravishda "dahriy", "din dushmani", "shakkok" qilib tasvirlanishi haqida hech narsa demaydi. Bunda albatta, davr zayliga amal qilingani o'z-o'zidan anglashiladi. Zero, badiiy va ilmiy tafakkurdagi bunday mutelik faqat ijodkornigina emas, balki davr ma'naviy hayotining fojeasi edi.¹⁰

Adabiyotshunos S.G'afurjonov Komil Ikromov portretiga oid chizgilarda ushbu qissa haqida fikr bildirib, asarning asosiy g'oyasi "inson umri boshqalarga xizmat qilish uchun sarflanishi, o'zgalarga harorat bag'ishlay olishi bilan qimmatli" ekanini to'g'ri ta'kidlaydi. U bu aqidaga amal qilgan Pahlavon Mahmud siymosining vatanparvar sifatida toblanishida uning razil din vakillariga, xudbin kimsalarga qarshi kurashi va chet ellardagi mahkum vatandoshlarini izlashdagi jasorati muhim omil bo'lganiga alohida urg'u beradi. Ammo, "borgan joyiga doimo saxovat, ezgulik urug'ini sochgan" shoir xarakterining tadrijiy takomilini, badiiy talqinda tarixiy reallik va ijodiy xayolot munosabatlarini ifodalashda adibga xos individual jihatlarni e'tibordan soqit qiladi va asarning zamonaviy pafosi xususida P.Shermuhammedov fikrlarini takrorlaydi.¹¹

Ko'rinadiki, yuqoridagi bu fikrlar qissani yaxlit holda g'oyaviy-estetik tahlil qilishga emas, balki asarning muayyan qirralari haqida umumiy fikr bildirishga qaratilgan. Vaholanki, qissada tarixiy va badiiy haqiqat, reallik va badiiy to'qima, adabiy an'ana va individual uslub, davr va inson konsepsiyasi kabi tarixiy mavzuning dolzarb masalalari aks etgan. Shuning uchun keyingi davrda ham bu asarga qiziqish yanada kuchaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Adabiyot nazariyasi. II tom. - T.: Fan, 1978. - 448 b.
2. Adabiy tur va janrlar. 2-jild. - T.: Fan, 1993.
3. Azimova. O'. Noma janrining o'zbek mumtoz adabiyotidagi o'rni. Magistrlik dissertatsiyasi. - Farg'ona.:2017
4. Haqqul.I O'zbek tasavvuf she'riyatining shakllanishi va taraqqiyoti. - T.:1995.126-b
5. Haqqul.I.O'zbek tasavvufiy she'riyatining o'rganilish muammolari. www.kh-davron.uz
6. Komilov.N.Tasavvuf. - T.: "Movarounnahr".2009.-447 b
7. Karomatov X. Qur'on va o'zbek adabiyoti. - T.: Fan. 1993.-281 b
8. Homidiy.H.Tasavvuf allomalari."Sharq".:Toshkent-2004. Muqaddima.-208 b
9. Omanova M. Istiqlool davri o'zbek romanlarida shayx valiyar obrazining badiiy talqinlari. Filol. fan. b. fals. dok. diss... avtoref. – Jizzax, 2022.

¹⁰ Rahimova.B.O'zbek adabiyotida Pahlavon Mahmud obrazi talqinlari. f. f.n dissertatsiya.-Toshkent.:2007.97-b

¹¹ Rahimova.B.O'zbek adabiyotida Pahlavon Mahmud obrazi talqinlari. f. f.n dissertatsiya.-Toshkent.:2007.96-b

10.Raimova S. Mustaqillik davri o'zbek she'riyatida diniy-ma'rifiy mavzuning badiiy talqini. Filol. fan. b. fals. dok. diss... . – Toshkent, 2021

11.Rahimova.B.O'zbek adabiyotida Pahlavon Mahmud obrazi talqinlari. f. f.n dissertatsiya.-Toshkent.:2007.144b

12.<https://kh-davron.uz>

13.<https://xs.uz>

14.[https:// Forum.Ziyouz.com](https://Forum.Ziyouz.com)

15.<https://teletype.in>

16.<https://saviya.uz>

17.www.ziyouz.com

18.<https://kitob.uz>

19.<https://bukhari.uz>